




**BOZOROV MUSTAFO JABBAROVICHNING
70 YILLIK YUBILEYIGA BAG'ISHLANGAN
“FAN TARAQQIYOTINING DOLZARB MUAMMOLARI: ZAMONAVIY
TENDENSIYALAR VA YONDASHUVLAR”**

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY ANJUMAN

**19-OKTABR
2024-YIL**

SAMARQAND 2024



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**Bozorov Mustafo
Jabbarovichning 70 yillik yubileyiga bag‘ishlangan**

**“FAN TARAQQIYOTINING DOLZARB MUAMMOLARI: ZAMONAVIY
TENDENSIYALAR VA YONDASHUVLAR”**

**mavzusidagi respublika
ilmiy-amaliy anjuman**

.

2024 yil, 19-oktabr

Samarqand - 2024

“Fan taraqqiyotining dolzarb muammolari: zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar” Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi maqolalari to’plami. (2024 yil 19-oktabr). Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2024. – 406-bet.

Tahrir hay’ati a’zolari:

f.f.d., dots. (DSc), Melikova M.N.
f.f.d., dots. (DSc), Xoliqov Yu.O
f.f.b.f.d., dots. (PhD), Xandamov I.A.
f.f.b.f.d., dots. (PhD), Ashurova X.S.
t.f.b.f.d., dots. (PhD), Indiaminova Sh.A.

Ma’sul muharrirlar:

f.f.b.f.d., dots. Xolikov B.A.
f.f.d., prof. G‘aybullayev O.
f.f.b.f.d., dost. Umirzoqov U.
o‘qituvchi. Malikov R.R.

Taqrizchilar:

SamDU. f.f.d., prof. Samadov A.R
SamDU. f.f.b.f.d., dots. Abdullayev S.T
SamISI. f.f.b.f.d., dots. Ro‘zumurodov S.M.

Mazkur konferensiya maqolalar to’plami 2024-yil 19-oktabrda Samarqand davlat chet tillar instituti “*Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari*” kafedrasi professori Bozorov Mustafo Jabbarovichning 70 yillik yubleyiga bag‘ishlab tashkil etilgan.

UDK 101.1::316

© Samarqand davlat chet tillar instituti, 2024

3. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. T.: "O'zbekiston", 2010
4. "O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi" O'zME. X-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000 yil
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki>
6. <https://lex.uz/docs>

ALTRUIZMNI TUSHUNCHASINING FALSAFIY MOHIYATI

Egamberdiyeva Aziza Mustafayevna

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti

Altruizm tushunchasi lotincha “alter” soʻzidan olingan boʻlib, oʻzga, boshqa maʼnolarida keladi va fidoyilik, insonparvarlik, shijoatlilik, jasoratlilik holatlarini ifodalaydi. Faylasuf olimlar uning jamiyatda axloqiy normalarga tayanib faoliyatda boʻlishini taʼkidlaydilar. Professor Q.Nazarov fikricha, “altruizm – odatda, yaqinlarga mehr-muhabbat bilan qarash, odamlarning xatolarini kechirish, oʻzining qadr-qimmatini chetlab oʻtib, uy-fikri va xatti-harakatini boshqalar hayotiga bagʻishlash, oʻzini tamomila unutishni anglatadi”¹⁵⁸. Bunday insonlar oʻtmishda ham, hozirda ham koʻplab topiladi. Ular oʻz ehtiyoj va manfaatlaridan koʻra jamiyatning, biror-bir insonning qadrini koʻtarish uchun butun umr intiladilar. Altruizm ezgulik va insonparvarlik instinkti sifatida barcha instinktlarning tendentsiyalarini axloqiy jihatdan jamiyatda inson qalbida rivojlantirib, oʻz xayrixohligi asosida fuqarolar bilan yaqinda ijtimoiy koʻmakni amalga oshiradi.

Altruizm jamiyatdagi axloqiy meʼyorlarga tayanar ekan, fuqarolardagi egoizmni yoʻqotish uchun intiladi va unga qarshi voqelikda namoyon boʻladi. “Altruizm – egoizmga qarama-qarshi axloqiy prinsip boʻlib, u boshqa kishilarga begʻaraz xizmat qilishdan, ulardan baxt-saodati uchun oʻz shaxsiy manfaatlarini qurbon etishdan iborat”¹⁵⁹. Shu boisdan bunday insonlar oʻzining ichki his-tuygʻulari va mehr-muhabbatini oʻzgalar bilan baham koʻrish uchun kuch-gʻayratini sarflaydilar.

Shaxs xususiyatlari tizimidagi altruizm dominant instinkt sifatida shaxsning mohiyatini, individualligini belgilaydi, Instinktlar ierarxiyasi uning qadriyatlari ierarxiyasini belgilaydigan shaxsiy profilni tashkil qiladi. Dominant instinktlari shaxs tomonidan qabul qilingan qadriyatlar toʻplamini aniqlaydi. Altruizm qadr-qimmatni saqlash instinkti ustunlik qiladigan shaxs turi uchun qadriyatlar ierarxiyasida katta ahamiyatga ega boʻlib, maʼnaviy oʻzini oʻzi takomillashtirish, muhtoj odamga hamdardlik, tabiatga muhabbat kabilar yuqori turadi.

Altruizm shaxs ijtimoiy tuzilishining maxsus tuzilmasini tashkil etuvchi tarkibiy qism boʻlib, hukmron instinktlarning egosentrizmini olib tashlaydi, vijdon, rahm-shafqat, hamdardlik, muhabbat, adolat kabi qadriyatlarni ichkilashtirishga sabab boʻladi. Instinktiv sohadagi altruizmning shaxs instinktlari va yoʻnalishlariga taʼsirining kuchayishiga olib keladi. Bu tushunchaning falsafiy

¹⁵⁸ Назаров Қ. Н. Жаҳон фалсафаси қомуси. -Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, “Маънавият”, 1-жилд, 2023. -Б. 65.

¹⁵⁹ Фалсафа қомусий луғат. –Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, “Шарқ”, 1-жилд, 2004. -Б. 22.

qarash sifatida o'rganilish zarurati yoshlikdan boshlab alohida ma'no kasb etishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, falsafiy qarash haqidagi kundalik fikrlar ko'pincha bu hodisaning mohiyatiga to'g'ri kelmaydi va ko'pincha fan nuqtai nazaridan uning talqinidan farq qiladi. Biroq, falsafiy qarash bo'yicha ilmiy tadqiqotga qo'yilgan muammoni hal qilish dolzarb vazifadir.

Nazariy manbalarni tahlil qilish natijasida falsafiy qarashning ko'plab ta'riflari mavjudligi aniqlandi. Turli tadqiqotchilarning qarashlarini tahlil qilish natijasida altruizmning mohiyatini tashkil etuvchi muhabbatni ta'rfi ham muhim masala sanaladi. Muhabbat - bu hissiy, kognitiv va motivatsion ehtiyoj bilan bog'liq xususiyatlar majmuini o'z ichiga olgan biologik va ijtimoiy omillar ta'siri ostida shakllangan murakkab hodisa¹⁶⁰. U jamiyatning barcha sohalarida namoyon bo'ladi va falsafiy qarash ob'ektiga muvofiq muayyan xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Muhabbat murakkab falsafiy hodisa sifatida insonda yoshlik davrida to'liq namoyon bo'ladi, chunki bu bosqichda aqliy rivojlanish eng yuqori darajaga etadi. Bu paytda insonning qadriyatlari, dunyoqarashi to'liq shakllanadi, u hayotda qabul qilinadigan xulq-atvor normalari, qoidalari va namunalarni o'rganadi. Bundan tashqari, inson yoshlik davrida insoniylikka xos bo'lgan hissiylikning barcha imkoniyatlarini intensiv ravishda amalga oshiriladi. Falsafiy qarashning o'ziga xos ahamiyatini aniqlash imkoniyati keng bo'aldi¹⁶¹.

Falsafiy g'oyalarning xususiyatlarini o'rganish jarayonida olingan ma'lumotlarning mazmuni tahlil qilinadi va amalga oshirildi. Nazariy tahlil va empirik qarashlarga asoslangan amaliy tadqiqotda muhabbatning tuzilishi, jumladan, hissiy, kognitiv, xulq-atvor, motivatsion-ehtiyoj, qiymat va fiziologik komponentlar haqida aytish mumkin. Bundan tashqari, ma'lum bir toifalarni miqdoriy baholashni talab qiladigan usullar bilan ishlashda sub'ektlar falsafiy qarashni tavsiflaydilar. Muhabbatning eng kerakli atributlarini ko'pchilik sub'ektlar muhabbat tuyg'usi deb tushunishadi, ya'ni ular muhabbat tabiatini tan oladilar. Insonning falsafiy qarashlar haqidagi g'oyalari hissiy, xulq-atvor va kognitiv komponentlar asosida rivojlanib, qolgan komponentlar esa sub'ektlar tomonidan amalga oshirilmaydi yoki kam tushuniladi. Sevimli odamga oid jumalarni tahlil qilishda uning asosiy xususiyatlari sub'ektlar nuqtai nazaridan aniqlanadi. Shu bilan birga, sevikli kishining asosiy xususiyatlari - mehribon odamlarga uning atrofida o'zlarini qulay his qilishlariga imkon beradigan xususiyatlar sanaladi. Sevgan odamning xatti-harakatlari yoki sevgan kishiga bo'lgan munosabatini tavsiflovchi belgilar kamroq esga olinadi.

Insonning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillar - bu uning o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi qabul qilish darajasi, shuningdek, shaxsiy qulaylik va ijtimoiy tan olinishi uchun ma'lum harakatlar qilish zarurligini anglashdir. Motivatsiya va muvaffaqiyatga erishish muammosiga mahalliy va xorijiy mualliflar bu masala bo'yicha tadqiqotlar olib borganligi, ularning tabiati haqida turli xil qarashlar mavjudligi barcha ma'lum. Muvaffaqiyatga intilayotgan

¹⁶⁰ Несына С.В. Романтическая любовь в ранней юности как психологическое явление. Автореф. дис. канд. психол. наук. – Тамбов, 2004. – 198 с.

¹⁶¹ Горобец Т.Н. Любовь – духовная потребность в реализации жизненной стратегии // Мир психологии. 2006. - № 1. – С.233.

shaxsning falsafiy xususiyatlari muammosini o'rganish amalga oshirilayotgan islohotlar davrida ayniqsa dolzarb bo'lib qoladi. Jamiyatimiz rivojlanishining zamonaviy sharoitida, ayniqsa, yangi turdagi mutaxassislar talab qilinadi, ya'ni faol, tashabbuskor, ochiqko'ngil, kasbiy mahoratga ega va hayotning barcha sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyaga e'tibor qaratiladi.

Muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan zamonaviy talabalarining falsafiy xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish zarur. Muvaffaqiyatga yo'naltirilgan odam juda faol va tashabbuskor bo'lib, to'siqlarga duch kelganda, ularni yengish yo'llarini izlaydi va maqsadlarga erishish, o'z kelajagini uzoq vaqt davomida rejalashtirishdagi qat'iyatligi bilan ajralib turadi. Muvaffaqiyatga intilayotgan shaxsning falsafiy xususiyatlari shaxsning yo'nalishi, o'zini o'zi qadrlashi, intilishlari darajasi, sub'ektiv nazorat darajasining lokalizatsiyasi, aql-idrok, harakatchanlik, moslashuvchanlik va muvaffaqiyatga ijobiy munosabat bilan bog'liq bo'ladi. Muvaffaqiyatga rag'batlantirilgan shaxs quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: shaxsiy va kasbiy qarorlarni amalga oshirishga qaratilgan maqsad va vazifalarni aniq bilish; bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish istagi, hayotiy faoliyat jarayoni va natijalaridan hissiy qoniqishi lozim.

Altruist inson boshqalarning xohish-istaklariga hamdardlik ko'rsatdi, bu odamlar va o'zi o'rtasida g'ayrioddiy kuchli aloqani his qiladi. Uning super egosi unga o'z xohish-istaklarini ro'yobga chiqarishga imkon bermaydi, lekin boshqa odamlarda kutilmagan tarzda bunga toqatli bo'lib chiqishiga olib keladi. U boshqalarga o'zlarining shunga o'xshash impulslerini koo'iktirish orqali o'z impulslerini qondirdi. Shunday qilib, uning o'z instinktlarini boshqalarning foydasiga tashqi rad etishi ya'ni, aslida, altruistik xatti-harakati egoistik ma'noga ega bo'lib, unga aylanma tarzda kechiktirilgan harakatlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, altruizm jamiyatda insonning fidoyi bo'lishiga, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning sababiyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Назаров Қ.Н. Жаҳон фалсафаси қомуси. -Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, “Маънавият”, 1-жилд, 2023. -Б. 65.
2. Фалсафа қомусий луғат. –Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, “Шарқ”, 1-жилд, 2004. -Б. 22.
3. Несына С.В. Романтическая любовь в ранней юности как психологическое явление. Автореф. дис. канд. психол. наук. – Тамбов, 2004. – 198 с.
4. Горобец Т.Н. Любовь – духовная потребность в реализации жизненной стратегии // Мир психологии. 2006. - № 1. – С.233.

MUOMALA MADANIYATINING AXLOQIY QADRIYATLAR BILAN ALOQADORLIGI

*Egamberdiyeva Nafisa Mustafayevna
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti*

Muallif	Maqola mavzusi	Sahifasi
	FUNKSIONAL O'ZGARISHLARI	
<i>To'xtayeva Sevinch Ulug'bek qizi, Ilmiy rahbar: Sherov Ma'ruf Boltayevich</i>	O'ZBEKISTONDA INSON TARAQQIYOTI BO'YICHA MILLIY MAQSADLARNI AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASI	389
<i>Hamdamov Islom Akramovich</i>	МИРЗО УЛУҒБЕК ЮЛДУЗЛАР ЖАДВАЛИ МУАЛЛИФИ	393
<i>Maxmudov Feruz Tulkinovich</i>	YANGI O'ZBEKISTONDA MAHALLABAY ISHLASH TIZIMI	396
<i>Usmonova Ozoda Xoldorovna</i>	ICHKI ISHLAR XODIMLARINING KASBIY AXLOQINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	398
<i>Nasimov Ozod Botir o'g'li</i>	JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SIYOSIY PARTIYALARNING O'RNI	401
<i>Abdiyev G'ayrat Ergashevich</i>	YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI	403
<i>Эгамбердиева Зарина Уктамовна</i>	СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ И ПОЛИТИЧ ИДЕИ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ АЛИШЕРА НА	409
<i>Abdurazaqov Shodiyor Sodirjon o'g'li</i>	JAMIYATDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISH JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH MEXANIZMI SIFATIDA	412
<i>Berdikulov Chingiz Dusmuradovich</i>	O'ZBEKISTONDA IJTIMOY HAMKORLIKNI TA'MINLASHDA IJTIMOY MENTALITET O'RNI VA ROLI	415
<i>Boboqulova Xurshida Erkinovna</i>	O'ZBEKISTON TARIXIDA DEMOKRATIK INSTITUTLARNIG RIVOJLANISH VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	419
<i>Egamberdiyeva Aziza Mustafayevna</i>	ALTRUIZMNI TUSHUNCHASINING FALSAFIY MOHIYATI	423
<i>Egamberdiyeva Nafisa Mustafayevna</i>	MUOMALA MADANIYATINING AXLOQIY QADRIYATLAR BILAN ALOQADORLIGI	425
	MUNDARIJA	439